

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONALAR VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

37 147

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

33 359

Yangi tashkil etilgan korxonalar

3 565

(2020- yilning yanvar-may oylarida)

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

22 673



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

2 378



Oilaviy korxona

218



Unitar korxona

6 469



Xususiy korxona

41




Aksiyadorlik jamiyati

423




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

320
boshqalar

38
aksiyadorlik
jamiyati

191
unitar korxona

2 171
oilaviy korxona

5 007
xususiy korxona

20 808
mas'uliyati
cheklangan jamiyat

28 535
tijorat korxonalari

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yil yanvar-may oylarida 3 565 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 476 ta, oilaviy korxonalar – 860 ta, xususiy korxonalar – 137 ta, muassasalar – 40 ta va boshqalar – 52 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(1- iyun holatiga ko'ra)




- Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlar soni 7 356 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 117,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 105,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 106,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 96,6 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) tashkil etadi.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 904 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ko'payishining asosiy omili bo'lib, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 148,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 28,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 166,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,9 %) o'sishidir.


Bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 94,4 % ni (jami qurilishdagi ulushi 63,2 %) tashkil etadi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, savdo sohasidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 8 981 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 116,7 % ga (jami savdodagi ulushi 66,4 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 141,6 % ga (jami savdodagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 98,8 % ni (jami savdodagi ulushi 26,7 %) tashkil etadi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



**Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
775 ta**



**Yashash uchun joy bilan ta'minlangan
holda parvarishlash
17 ta**



**Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan
holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
6 ta**

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



115

**yashash bo'yicha
xizmatlar**



1 593


**oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar**

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 708 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 117,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,3 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 2,2 martaga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,7 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 508 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,5 % ni tashkil qildi.

Jami axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonidan, noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 95,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,5 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 92,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,9 %), kino- videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 82,8 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,7 %) aloqa xizmatlarning – 86,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 43,7 %) tashki etadi.

Axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 113,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,2 %), dasturlar tuzish va teleradio-eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 125,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %) o'sgan.


Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 10- yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17-son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

IT-PARK maqsadi:

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;

-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startap-loyihalarni" har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

Oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 2 378 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 691 taga yoki 3,5 marta oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 171 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 513 taga yoki 3,3 marta oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 860 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 766 taga yoki 9,1 marta oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 22 673 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 125 taga yoki 122,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 808 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 827 taga yoki 115,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 476 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga yoki 1,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 335 tani tashkil etib, ulardan 316 tasi yoki 94,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 73 taga yoki 27,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	127	156	184	254	316
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	4	8	20	25
Sanoat	96	119	140	163	183
Qurilish	5	7	7	12	20
Savdo	9	7	14	27	39
Tashish va saqlash	3	4	2	2	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	5	7	9
Axborot va aloqa	0	0	0	2	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	1	1	5
Boshqa turlar	6	7	7	20	29


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	12 102	13 939	14 360	17 981	20 808
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	905	992	979	1 110	1 282
Sanoat	2 853	3 313	3 606	4 583	5 260
Qurilish	1 463	1 555	1 585	2 008	2 413
Savdo	3 525	4 389	4 273	5 469	6 525
Tashish va saqlash	662	735	856	1 049	1 117
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	664	751	746	905	1 081
Axborot va aloqa	208	267	258	308	329
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	194	226	329	438	553
Boshqa turlar	1 628	1 711	1 728	2 111	2 248

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	478	505	658	2 171
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	126	126	132	253
Sanoat	206	217	296	863
Qurilish	6	6	8	12
Savdo	39	47	69	578
Tashish va saqlash	2	1	7	16
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	55	58	78	280
Axborot va aloqa	3	4	5	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	7	11	15
Boshqa turlar	41	39	52	142

O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	69	35	34
Qirg'iz Respublikasi	34	16	18
Qozog'iston Respublikasi	7	3	4
Belarus Respublikasi	6	5	1
Ukraina Respublikasi	3	0	3
Ozarbajjon Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	1	0	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	0

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,8 %, Qirg'iz Respublikasi 10,8 %, Qozog'iston Respublikasi 2,2 %, Belarus Respublikasi 1,9 %, Ukraina Respublikasi 0,9 % va Ozarbajjon Respublikalari 0,9 % ga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (11 309 ta), Asaka (3 142 ta), Shahrixon (2 332 ta), Andijon (2 055 ta), Qo'rg'ontepa (1 678 ta) va Baliqchi (1 631 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Andijon viloyati	316	168	148
Oltinko'l	18	13	5
Andijon	24	18	6
Baliqchi	8	2	6
Bo'ston	8	5	3
Buloqboshi	11	6	5
Jalolquduq	10	6	4
Izboskan	8	5	3
Ulug'nor	5	3	2
Qo'rg'ontepa	7	5	2
Asaka	18	11	7
Marhamat	14	6	8
Shahrixon	24	9	15
Paxtaobod	7	3	4
Xo'jaobod	14	9	5
Andijon sh.	125	59	66
Xonobod sh.	15	8	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahrida 125 ta (jamidagi ulushi 39,6 %), Andijon va Shahrixon tumanlarida 24 tadan (7,6 %) tashkil etgan. Eng kam Ulug'nor 5 ta (1,6 %), Paxtaobod, Qo'rg'ontepa tumanlarida 7 tadan (2,2 %), Baliqchi, Bo'ston, Izboskan tumanlarida 8 tadan (2,5 %) hamda Jalolquduq tumanida 10 tani (3,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Andijon shahri (31,7 %), Asaka (9,0 %), Shahrixon (7,1 %), Andijon (7,0 %), Qo'rg'ontepa (5,2 %), Oltinko'l (5,1 %), Izboskan (5,0 %), Baliqchi (4,8 %), Marhamat (4,6 %), Jalolquduq (4,0 %), Paxtaobod (3,6 %), Xo'jaobod (3,5 %), Buloqboshi (2,9 %), Bo'ston (2,8 %), Ulug'nor (1,9 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,8 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Andijon shahri (24,0 %), Asaka (10,0 %), Shahrixon (7,3 %), Baliqchi (6,4 %), Jalolquduq (6,3 %), Qo'rg'ontepa (5,8 %), Izboskan (5,3 %), Bo'ston (4,9 %), Andijon (4,8 %), Oltinko'l (4,6 %), Xo'jaobod (4,4 %), Marhamat (4,1 %), Buloqboshi (4,0 %), Paxtaobod (3,9 %), Ulug'nor (2,3 %) tumanlari va Xonobod shahri (1,9 %) ulushiga ega.




Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxona va mikrofirmalar soni²⁾

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




¹⁾ 2020- yil 1- yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020- yil 1- aprel holatiga ko'ra shakllantirilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Andijon shahri (37,2 %), Asaka (7,3 %), Shahrixon (7,2 %), Andijon (6,4 %), Izboskan (4,9 %), Oltinko'l (4,4 %), Qo'rg'ontepa (4,4 %), Xo'jaobod (4,3 %), Baliqchi (4,2 %), Marhamat (4,1 %), Jalolquduq (3,9 %), Paxtaobod (3,7 %), Buloqboshi (2,6 %), Bo'ston (1,7 %), Ulug'nor (1,7 %) tumanlari va Xonobod shahri (2,0 %) hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.06.2019- yil	01.06.2020- yil
Andijon viloyati	813 193	25 541	28 535
Oltinko'l	52 438	1 345	1 251
Andijon	71 684	1 756	1 784
Baliqchi	54 692	1 265	1 334
Bo'ston	18 072	583	655
Buloqboshi	36 731	609	758
Jalolquduq	45 902	907	993
Izboskan	61 496	1 186	1 226
Ulug'nor	15 766	447	441
Qo'rg'ontepa	55 793	1 146	1 348
Asaka	82 608	2 423	2 754
Marhamat	45 177	1 166	1 131
Shahrixon	79 142	1 647	1 966
Paxtaobod	53 767	816	1 039
Xo'jaobod	25 802	862	1 045
Andijon sh.	103 396	8 984	10 241
Xonobod sh.	10 727	399	569

** 2020- yil 1- yanvar holatiga ko'ra tumanlarda (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlar ma'lumotlar asosida jamlangan.*

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-may oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon shahri (26,6 %), Asaka (20,6 %), Bo'ston (15,4 %), Qo'rg'ontepa (9,4 %), Andijon (5,0 %), Shahrixon (4,5 %), Buloqboshi (4,5 %), Oltinko'l (3,7 %), Izboskan (2,7 %), Xonobod shahri (2,4 %), Jalolquduq (2,3 %), Paxtaobod (1,2 %), Baliqchi (1,2 %) va Xo'jaobod (0,5 %) tumanlari ulushiga ega.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-may oylarida)

soni, birlikda



o'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The header includes the national emblem, the committee's name in Uzbek, Russian, and English, and navigation links for various services. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR' and features a dropdown menu for 'KYaDR ma'lumotlari'. The menu options include 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqqim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. The 'Statistik klassifikatsiyalar' option is currently selected, leading to a form for entering the STIR code. The form includes a text input field for 'STIR kodini kiriting', a button for 'Rasmdagi kodni kiriting', and a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar lists various statistical categories under 'RASMIY STATISTIKA', and the right sidebar lists useful information under 'FOYDALI MA'LUMOTLAR'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.:74 228-29-74